

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARNI TADBIQ ETISH

Eraliyeva Zamira Rasuljonovna

Qo'qon universiteti "Ta'lim" kafedrası dotsent v.b.

Annotatsiya. Ushbu maqolada Respublikamizda qabul qilingan bir qator me'yoriy hujjatlarda, ta'lim sohasiga yangi innovatsion texnologiyalardan, jumladan, multimedia texnologiyasidan foydalanishning dolzarb masala ekanligi qayd etilgan. Hozirgi kunda ta'lim sohasida multimediaga asoslangan elektron darslik, qo'llanma va turli elektron didaktik vositalar yaratilib foydalanib ulardan keng qo'llanilgan. Ammo maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonida multimedia texnologiyasidan foydalanish va shu asosda mashg'ulotlar jarayonida innovatsion uslublarni tatbiq etish imkoniyatlari yetarlicha ishlab chiqilmagan. Uzluksiz ta'lim tizimining birinchi turi bo'lgan maktabgacha ta'limda tashkilotlarida ham innovatsion texnologiyalarni izlash, ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish bugungi kunning dolzarb vazifasi hisoblanish haqida fikr bildirilgan. Ushbu maqolada, maktabgacha ta'lim tashkiloti tizimida innovatsion texnologiyalardan foydalanish haqida fikr va mulohazalar yoritib o'tilgan.

Tayanch so'zlar: innovatsion texnologiyalar, maktabgacha ta'lim tizimi, multimedia, elektron darslik, bolalar psixologiyasi, grafika, animatsiya, multimediaviy hujum, rivojlanish.

ВНЕДРЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ

Аннотация. В данной статье подчёркивается, что в ряде нормативно-правовых документов, принятых в Республике Узбекистан, использование новых инновационных технологий, в частности мультимедийных технологий, является актуальной задачей системы образования. В настоящее время в сфере образования создаются и широко применяются электронные учебники, пособия и различные мультимедийные дидактические средства. Однако в дошкольных образовательных организациях вопрос использования мультимедийных технологий в учебно-воспитательном процессе, а также внедрение инновационных методик в занятия на их основе до сих пор недостаточно разработан.

Как отмечается автором, поиск, разработка и практическое внедрение инновационных технологий являются приоритетной задачей и для дошкольного образования, являющегося первым звеном непрерывной системы обучения. В

статье представлены размышления и выводы, посвящённые вопросам применения инновационных технологий в системе дошкольного образования.

Ключевые слова: инновационные технологии, система дошкольного образования, мультимедиа, электронный учебник, психология детей, графика, анимация, мультимедийная атака, развитие.

IMPLEMENTATION OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS

Annotation. This article emphasizes that several regulatory documents adopted in the Republic of Uzbekistan identify the use of new innovative technologies - particularly multimedia technologies - as a highly relevant issue in the education system. Today, electronic textbooks, digital teaching aids, and various multimedia-based didactic resources are being created and widely used in education. However, in preschool educational institutions, the effective use of multimedia technologies in the teaching and upbringing process, as well as the implementation of innovative methods based on these technologies, has not been sufficiently developed.

The author notes that searching for, developing, and applying innovative technologies in practice is also an essential task for preschool education, which constitutes the first stage of the continuous education system. The article presents insights and reflections on the use of innovative technologies within the preschool education system.

Keywords: innovative technologies, preschool education system, multimedia, electronic textbook, child psychology, graphics, animation, multimedia approach, development.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda “2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2707-son qarori bilan “Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan dastur” tasdiqlandi va mazkur. Dasturning asosiy maqsad, vazifalari va yo‘nalishlari qatorida maktabgacha ta’lim tashkiloti samaradorligini oshirish, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni maktabga namunali tayyorlashni tubdan o‘rganib chiqish va yanada yaxshilash, ta’lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo‘llaniladigan zamonaviy va inqilobiy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini jori etish vazifalari belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori misolida ko‘rsak, mazkur kontseptsiya maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta’limdan teng foydalanishini ta’minlash, maktabgacha ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, bir so‘z bilan aytganda, maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishning maqsadli vazifalarini qamrab olgan bo‘lib, jarayonning ustuvorliklari va bosqichlarini belgilab beradi.

Bunda bolalarda Vatanga bo'lgan muhabbat hissini, o'z oilaga, bolalar o'z xalqining milliy, tarixiy, madaniy qarash va qadriyatlariga hurmati, atrof-muhitga bo'lgan hissiyotlarini ehtiyotkorona munosabatni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilishi lozim.

K. D. Ushinskiy analogiya bo'yicha quyidagi fikrni bildirgan edi. "Taqqoslash har qanday tushunchaning va har qanday tafakkurning asosidir. Odamdagi narsalarning hammasini taqqoslab ko'rish yo'li bilan bilolmasak, boshqa yo'l bilan bila olmaymiz, agar hech narsa bilan solishtirishimiz va farqini bilib olishimiz mumkin bo'lmagan biron yangi narsaga, duch kelganimizda edi (boshqa shunday narsa bor bo'lsa), u holda biz shu narsa to'g'risida hech qanday fikr hosil qila olmagan bo'lar edik va u to'g'risida biror so'z ayta olmagan bo'lar edik". Masalan, "Shakllarni ustma - ust qo'yish" multimediali kompyuter o'yinida tarbiyalanuvchi yuqori qatordagi shakllarni taqqoslab, o'xshashini topadi va o'yinni bajaradi.

Mariya Montessori Italiyadagi birinchi ayol shifokor bo'lgan, psixiatriya klinikasida assistent bo'lib ishlagan, Rim universitetida dars bergan va faqat doktorlik ilmiy darajasini olgan. Aynan shu sabab bolalar haqida o'rganib, keyinchalik "Bolalar uyi" noyob asarini yozdi. Ilmiy pedagogika metodi. M. Montessori o'zining pedagogik tizimini didaktik jihatdan tayyorlangan muhitda bolaning o'zini o'zi rivojlantirish tizimi deb atagan. Kattalar bilan yaqin joyda o'tadigan bolaning hayot yo'lini o'rganish, uning ta'lim usullari va tamoyillariga aralashish emas, balki u pedagogik antropologiyaning asosini o'rganish edi. M. Montessori har qanday amaliy harakatlar, nazariyalar va modellar faqat rivojlanayotgan shaxs haqidagi fundamental bilimlarga asoslanishi mumkin deb hisoblardi.[2] Bolalarning holati va xulq-atvorini ilmiy kuzatishlar unga "diqqatning qutblanish hodisasi" ni aniqlashga yordam berdi, shundan aslida u bolaning erkin o'zini o'zi rivojlantirishi va uning ishini maxsus maktabda tashkil etish usullari to'g'risida xulosa chiqaradi. jihozlangan muhit. Mariya Montessorining muhim asarlaridan biri "Bolalar boshqacha" deb nomlangan. Kitobning sarlavhasida allaqachon uning bola hayoti tasviriga fundamental nuqtai nafari ko'rinadi. Bu bolaning ruhiyati va mohiyati kattalarnikiga qaraganda boshqacha tartibga solinganligidadir.

Bugungi kunda xalqimizga hamda kishilar faoliyatining ko'p sohalari kirib kelayotgan va ularning rivojlanishiga ta'sir qilayotgan axborot va kompyuter texnologiyalarini tezlikda rivojlanishi, ularni o'yin, o'yinli faoliyat, maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash va rivojlantirishga ham ta'sir etmoqda.

Kompyuterli dastur bola uchun yangi o'yin vositasi, qiziq va boshqariluvchi o'yinchoq bo'lishi mumkin va bu vositalar yordamida turli-tuman o'yin masalalarini yechishi, demak, rivojlanishi mumkin. Lekin, kompyuter o'yinini muvaffaqiyatli egallash uchun bolada psixik jarayonlarni shakllanganlik darajasi talab etiladi. Shuning uchun ham ko'pgina psixolog olimlarning fikricha kompyuterni 5-6 yoshdan kichik bo'lmagan bolalarga tanishtirish mumkinligini ta'kidlaydilar.[4]

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilariga ta'lim berishda innovatsion texnologiyalaridan foydalanish murakkab masala hisoblanib, ko'plab bahs-munozaralarga sabab bo'lmoqda. Lekin shunga qaramay, maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ularning har tomonlama yuksak inson bo'lib rivojlanishida kompyuter texnologiya vositalaridan foydalanish o'zining ijobiy belgilarini na'moyon etmoqda.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarning badiiy-musiqiy faoliyatini, matnlarni o'qish, rasmlarni ko'rish va ajrata olish tasavvurlarini kengaytirish kompyuterli o'yin dasturlari orqali ma'naviy fikrlash va mustaqil qarorlar qabul qilish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishda innovatsion texnologiyalaridan keng foydalanib kelinmoqda.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi uchun mo'ljallangan kompyuterli innovatsion o'yin dasturlarining barchasi ham ta'lim jarayonida o'z samarasini har doim ham beravermaydi. Shu sababli ham kompyuter o'yinlarini tanlash va ulardan foydalanish uchun jiddiy yondashuv va e'tibor kerak bo'ladi.[1]

Bugungi kunda yerda nima uchun hozirgi kunda pedagogik texnologiyalarni ilmiy, nazariy, amaliy asosini ijro etish va amaliyotga tatbiq etish zaruriyati paydo bo'lmoqda. Tarmoqlar paydo bo'lgandan so'ng yangi savol paydo bo'lishi mumkin. Hozirgi kunda jamiyatimizga qanchadan qancha bilimli kadrlarni va yuqori malakali olim va olimalarni yetishtirib kelgan pedagogika uslublari mavjudki, shularning eskirib, talabga javob bera olmay qolgan joylarini o'zgartirib, milliyligimiz namoyon - degan mulohazalar ham kam emas. Pedagogik jamoatchilikning aksariyati, aynan mana shu izdan yetakchi bo'lib bormoqda. Shu yo'l ilojisizlikdan izlab topilgan bo'lib, qisqa muddat xizmat qilishi mumkin. Mustaqillikni qo'lga kiritgan va yangi kelajak sari intilayotgan jamiyatga shu yo'l bardavom xizmat qila olmaydi.

Chunki:

-ba'zi bir sabablarga ko'ra jahon ham jamiyat taraqqiyotdan ortda qolib ketgan jamiyatimiz, taraqqiy etgan davlatlar qatoridan o'rin olishi uchun, aholi ta'limini rivojlantirish va sifatini oshirish maqsadida eng ilg'or pedagogik tadbirlardan foydalanish zarurligi:

-an'anaviy ta'lim berish tizimi yozma va og'zaki so'zlarga tayanib ish ko'rishi tufayli «Axborotli o'qitish» sifatida tavsiflanib, o'qituvchi faoliyati birgina o'quv jarayonining tashkilotchisi sifatida emas, balki nufuzli bilimlar manbaiga aylanib qolganligi:

-fan va textika taraqqiyotininig yaxshi rivojlanganligi natijasida axborotlarning asta sekin bilan ko'payib borayotganligi va ularni yosh avlodga bildirish uchun vaqtning chegaralanganligi:

-insoniylik jamiyati o'z ravnaqining bugungi kundagi bosqichida nazariy va empirik bilimlarga asoslangan tafakkurdan tobora foydali natijaga ega bo'lib kelgan va aniq yakuniga asoslangan texnik tafakkurga o'tib borayotganligi:



-yoshlarimizni dunyo qarashiga va hayotga mukammal tayyorlash maqsadida ularga eng so'nggi ilg'or bilim berish usuli hisoblangan ob'ektiv borliqqa majmuaviy yondoshuvlardan foydalanishni talab etishdir.

YuNESKO qoshida ta'limni rivojlantirish O'rta Osiyo pedagogik innovatsiyalar markazi mavjud bo'lib, dunyodagi turli mamlakatlardagi pedagogik yangiliklarni mujassamlashtirish, ta'lim tashkilotlari bo'yicha xalqaro byuro bilan birgalikda pedagogik jamoatchilikka maxsus nashrlarda ular haqida ma'lumotlar tarqatadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, aqliy, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish shu bilan birgalikda Kontseptsianing asosiy yo'nalishlaridan biridir. Mazkur tizimda innovatsion, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng tatbiq etish maqsadida maktabgacha ta'lim tashkilotlarini kompyuterlar bilan ta'minlash, internet tarmog'iga ulanishi bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Maktabgacha ta'limda tashkilotlari tarbiya va tarbiyalanuvchilarning samaradorligini oshirish yuzasidan davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiyada axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni yanada takomillashtirish mavzusida shahar Maktabgacha ta'lim tashkilot bo'limlari tomonidan o'quv-seminarlar, tushuntirish ishlari olib borilmoqda. Ushbu tadbirlarlarda "OPEN EMIS" tizimidagi xato kamchiliklarni tuzatish bo'yicha amaliy va nazariy ko'nikmalar berilmoqda.

Respublikamizda qabul qilingan bir qator me'yoriy hujjatlarda, ta'lim sohasiga yangi innovatsion texnologiyalardan, jumladan, multimedia texnologiyasidan foydalanish dolzarb masala ekanligi qayd etilgan. Hozirgi kunda ta'lim sohasida multimediyaga asoslangan elektron darslik, qo'llanma va turli elektron didaktik vositalar yaratilmoqda hamda ulardan foydalanib kelinmoqda. Ammo maktabgacha ta'lim tashkilotlari ta'lim-tarbiya jarayonida multimedia texnologiyasidan foydalanish va shu asosda mashg'ulotlar jarayonida innovatsion uslublarni tatbiq etish imkoniyatlari yetarlicha ishlab chiqilmagan. Uzlaksiz ta'lim tizimining birinchi turi bo'lgan maktabgacha ta'limda ham innovatsion texnologiyalarni izlash, ishlab chiqish va amaliyotga amaliy tatbiq etish bugungi kunning dolzarb vazifasidan biri hisoblanib kelmoqda.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining ta'lim-tarbiya jarayoniga foydalanishga mo'ljallangan innovatsion texnologiyalaridan biri ta'limiy multimedia texnologiyasi hisoblanadi. Multimedia texnologiyasi zamonaviy innovatsion axborot texnologiyasining tez rivojlanayotgan yo'nalishlaridan biri bo'lib, quyidagi tashkil etuvchilaridan iborat: matn, jadval, grafika, musiqa, bezak, animatsiya, audio, video. Ta'limda multimedia texnologiyasi va vositalaridan foydalanish uslubi "multimediyaviy hujum" uslubi deb nomlandi.[3]

Xulosa qilib aytganda yuqoridagilar bilan bog'liq holda, hozirgi vaziyat va bolalar jamoasining o'ziga xos xususiyatlari tufayli zamonaviy tarbiyachi uchun innavatsion

texnologiyalardan o'z vaqtida foydalanish juda muhimdir. Va nihoyat, bu qisqa vaqt ichida maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarida aqliy dunyo qarashning turli jihatlarini rivojlantirishga yordam beradigan muammolarni yanada samarali hal qilish imkonini beradi. Zamonaviy maktabgacha ta'limning muammolaridan biri bu o'zgaruvchan sharoitlarda maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy jihatdan yanada samarali rivojlantirishga imkon beradigan texnologiyalarni qo'llamasliklaridadir.

Innovatsion jarayonning mikrostrukturasini o'rganib olish, yangilik kiritishning "hayotiy davri" kontseptsiyasini alohida ko'rsatib o'tiladi, u yangilik kiritish vaqt davomida o'tib boradigan jarayon, degan fikrdan kelib chiqadi.

Media qanday shakllanadi, u haqiqatni ifodalaydimi, kimning manfaatini ko'zlaydi, uning mazmuni nimalardan iborat va bolalar uni qanday qabul qiladilar - bu savollar hozirgacha turli munozaralarni tug'dirmoqda. Lekin shuni yodda tutish kerakki, media ta'limning markazida bola shaxsi turadi, uning qiziqish, xohish, istaklarini hisobga olish, olingan axborot asosida tanqidiy fikrlashga o'rgatish kerak. Turli davlatlar olimlarining fikrlariga ko'ra, media ta'lim tarbiyaviy, ta'limiy ahamiyatga ega bo'lib, bolalarni o'quv-bilish jarayonida kreativ fikrlashga o'rgatadi.

Hozirgi vaqtda maktabgacha yoshdagi bolalarga yangi axborot texnologiyalarini o'rgatish, ularni kompyuter bilan tanishtirish, kompyuter savodxonligi asoslarini o'qitish masalalari dolzarb vazifalar sirasiga kirmoqda.

Respublikamizdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'tazilayotgan ko'pgina tajribalarning natijalari, bolalar bog'chalarida maxsus kompyuter o'quv-o'yinli va rivojlantiruvchi dasturlardan foydalanish yaxshi samara berayotganligini tasdiqlamokda, shuningdek, amaliyot, bevosita bolani axborot olami bilan tanishishining birinchi bosqichi bo'lishi mumkinligini ko'rsatishi kerak. Respublikamizda ko'p hollarda bunday ishlar maktabgacha ta'lim tashkiloti mashg'ulotlarida emas, balki ko'proq uyda, ota-onalari, akalari va opalari bilan ham amalga oshirishadi. Buni maktabhacha ta'lim tashkilotida ham bolalar bilan birgalikda mashg'ulot sifatida qo'shib ketritishimiz mumkin.

Rivojlantiruvchi o'yin, faoliyat sifatida bolada bosqichma-bosqich ishiga bog'liq bo'lgan harakat turini, o'xshash fikrlashning belgili vazifasini rivojlanishini, ko'rgazmali-shaklli fikrlashga o'tishni, tushuncha turidagi nutqiy fikrlashni shakllanishini vujudga kelishini ta'minlaydi. Shuning uchun, bola tomonidan turli an'anaviy o'yinlarni o'rganishi kompyuter o'yinlarini egallash uchun zarur bo'lgan asosni yaratab berish lozim. Bog'cha bolalarining o'yinli faoliyatiga kompyuter dasturlarini kiritish, to'g'ri dasturiy mahsulot tanlash va ulardan to'g'ri foydalanish, kompyuter o'yini bolalarning o'yinli faoliyatidagi haqiqiy vositasiga aylantiradi. Shunda bolaning o'yin muhitini yetarlicha boyitish va kompyuter bolani psixikasi hamda intellektini rivojlantirishining qudratli omiliga aylantirish mumkin.



Adabiyotlar

1. Eraliyeva, Z. (2024). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING TASAVVURINI DIQQATINI XOTIRASINI TAFAKKURNI VA KREATIVLIGINI RIVOJLANTIRISHDA 3D VA VIRTUAL TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI VA TADBIQI. *University Research Base*, 785–788. Retrieved from <https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/726>
2. Rasuljonovna, E. Z. (2025). BOLALARDA BADIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHDA TRIZ (IMEN) USULLARI HAQIDA ILMIY QARASHLAR. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 44(1), 121-127.
3. Rasuljonovna, E. Z. (2025). BOLALARDA BADIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOFIZIOLOGIK ASOSI. *Journal of universal science research*, 3(6), 49-57.
4. Tolipov O'., Usmonboyeva M. *Pedagogik texnologiyalarning tadbqiq asoslari* T.: 2006.
5. Ishmuhamedov R. O'quv jarayonida interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalarni qo'llash uslubiyati. T.: RBIMM, 2008.
6. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog–o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – T.: Iste'dod, 2008.